# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (4- jild)
2024

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V4I3Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 3 (4) - 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Hamroyev Asliddin Umed o'g'li*
"GULSHANUL MULUK" ("SHOHLAR GULSHANI") ASARI – MANG'ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI ..... 13-18

*Bazarbayeva Shohsanam Muratovna*
SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) ..... 19-23

*Asadova Dilnoza Innatovna*
O'ZBEKISTONDA RAQS SAN'ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI ..... 24-28

*Ҳайитов Умед Яҳёевич*
ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚЎМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ ..... 29-34

*Омонова Сарвиноз Ориф қизи*
ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ ... 35-42

**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Алимханова Нигора Алимхановна*
ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 43-52

*Mahmudova Dilafruz Hasanovna*
KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI ..... 53-60

*Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li*
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ..... 61-69

*Мехмоналиев Улугбек Эркинжон угли*
СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ . 70-75

*Паязов Мурод Максудович*
"ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ" АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ ..... 76-86

*Шадибекова Дилдор Абдурахмановна*
ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ ..... 87-92

*Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu*
INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION ..... 93-99

*Мамажонова Одинахон Алишер қизи*
КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ..... 100-106

*Nozimov Eldor Anvarovich*
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O'ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLARNING O'RNI ..... 107-115

*Буранова Жазира Эргаш қизи*
ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ ГОСУДАРСТВА ..... 116-120

*Худойназаров Фахритдин Хаитович*
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ ............ 121-127

*Бахтиёров Бобур Баходир ўғли*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ ............ 128-136

*Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna*
O‘ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ............ 137-145

*Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li*
OLIY TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI ............ 146-150

*Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o‘g‘li*
TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI ............ 151-159

*Saidov Shohruh Mirzo*
SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ............ 160-169

*Kunduzova Kumrixon Ibragimovna*
IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O‘RNI ............ 170-177

*Inomjon Matkarimov*
AGROKIMYO BIOKIMYO XIZMATLARI IJTIMOIY IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA’MINLASHNING SWOT TAHLILI ............ 178-183

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

*G‘aybullayev Otabek Muxammadiyevich*
JAMIYATDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI ............ 184-189

*Masharipova Gularam Kamilovna*
MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG‘MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY’A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI ............ 190-198

*Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна*
ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО-ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ ............ 199-206

*Urinov Xushnudjon Abdulomitovich*
TA’LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI ............ 207-220

*Азизқулов Акрам Абдурахмонович*
ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ ............ 221-227

*Kenjayev Ulug‘bek Muratovich*
BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI ............ 228-232

*G‘aybullayeva Laylo Safarboyevna*
MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIY-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI ............ 233-238

*Xoʻjanova Tamara Joʻraevna*
YOSHLAR MAʼNAVIYATIGA TAHDID VA ULARDAN OʻZINI ONGLI HIMOYA QILISH KOʻNIKMALARI ........ 239-245

*Jabborova Saodat Sattorovna*
MAʼNAVIY SALOHIYATNING IJTIMOIY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI ........ 246-252

*Xusanov Gʻolib Elmurodovich*
OʻZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI ........ 253-257

*Агзамходжаева Шахноза Саидматмабовна*
МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ ........ 258-265

*Oʼrazov Bobir Baxtiyorovich*
IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI ........ 266-270

*Qunishev Ulugʻbek Ulashevich*
NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TAʼSIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR ........ 271-275

*Турдибоев Бозор Худойбердиевич*
ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА ........ 276-282

*Kenjayeva Dilrabo Rominovna*
MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TAʼLIMOTIDA OʻZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 283-287

*Azamatova Gulrukh Islom qizi*
SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION ........ 288-293

*Тошпулатова Ширин Мухиддиновна*
ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 294-302

*Yuldasheva Dilorom Yuldashevna*
SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION ........ 303-307

*Bekchanov Xudoybergan Oʻrinivich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yulliyeva Sohiba Shuhrat qizi*
MAKTABGACHA YOSHDAGI KATTA GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOIY VA KOMMUNIKATIV QOBILYATNING RIVOJLANISHI ........ 308-314

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Ткебучава Ирина Георгиевна*
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ ........ 315-320

*Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nursultanqizi*
TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA) ........ 321-327

*Ashurova Maftuna Asqar qizi*
LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ........ 328-334

*Mustafayeva Saodat Burxanovna*
SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR VOSITASIDA VOQELIKNI BADIIY TALQIN ETISH ........ 335-340

*Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi*
DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR ........ 341-346

*Xajiyeva Dilfuza Adambayevna*
FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O‘RNI VA O‘RGANILISHI ........ 347-351

*Jumanova Sevara Xolmurod qizi*
KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA ........ 352-356

*Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna*
MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI ........ 357-366

*Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich*
LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION ........ 367-370

*Maxmudova Fotima Maqsud qizi*
TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE ........ 371-375

*Maxmudova Zuhra Maqsud qizi*
BADIIY TARJIMANING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI ........ 376-380

*Davronova Zulfiya Boboyevna*
UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE ........ 381-386

*Hakimova Dilrabo Yo‘ldoshovna*
TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA ........ 387-392

*Мадрахимов Тулибай Абдукаримович*
СЎЗЛАШУВ НУТҚИНИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ ........ 393-395

## *12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР*

*Ergashev Ikrom Abdurasulovich*
SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG‘LIQ HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI ........ 396-402

*Куатбек Гулнар Куатбековна*
ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ ........ 403-409

*Jurayev Dilmurot Mukhtarovich*
ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS ........ 410-415

*Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi*
CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system) ........ 416-428

*Касимов Нодиржон Содикжонович*
ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ........ 429-438

*Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович*
ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 439-445

*Джалилов Сардор Шавкатович*
ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ ........ 446-453

***13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***

*Mirzayev Qodir Toirovich*
ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 454-458

*Васильченко Ольга Анатольевна*
ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 459-463

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*
ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ........ 464-470

*Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna*
TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI ........ 471-477

*Jurayev Bobomurod Tojiyevich*
ABU ALI IBN SINO QARASHLARIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI ........ 478-482

*Umurova Ma’rifat Yoshiyevna*
XALQ QO’SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA ........ 483-486

*Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi*
INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOILIYATIDAGI AHAMIYATI ........ 487-492

*Rajabiy Aziz Xasanovich*
VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI ........ 493-497

*Omanov Rashid Sherqobilovich*
O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO‘G‘RI TASHKIL ETISH ........ 498-501

*Салимов Акром Хайитович*
БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ ........ 502-507

*Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich*
TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI ........ 508-514

*Ли Екатерина Владимировна*
СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ........ 515-523

*Ахмедова Нафиса Исаходжаевна, Азаматов Абдулло Исахўжа ўғли, Лутфуллина Румия Анваровна*
ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 524-533

*Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна*
АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ ........ 534-541

*Amonov Mirjon Namozovich*
IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI ........ 542-547

*Sharipov Habibullo Abduqahhorovich*
TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI ........ 548-552

*Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna*
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 553-560

*Xakimova Gulshan Abduxalilovna*
JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI TARBIYALASH ........ 561-565

*Nazarov Rustam Irkinovich*
TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE) ........ 566-570

*Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi*
CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI ........ 571-576

*Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna*
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODELI ........ 577-585

*Usmonova Matluba Nosirovna*
O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI ........ 586-590

*Ustaev Abdurazzoq Qurbonovich*
MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI VOSITALARI ........ 591-596

*Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitora Bahromovna*
ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A SCHOLARLY EXAMINATION ........ 597-603

*Yeshanov Marat Urazaliyevich*
INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI LANGUAGE) ........ 604-616

*Tursunova Shahnoza Bekchanovna*
JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING O'RNATISH ........ 617-622

*Atoyeva Gulshoda Rabimovna*
OILADAGI ZO'RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI ........ 623-628

*Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbonova Aziza Davlat qizi*
JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI ........ 629-635

*Jamolova Mokhigul Bakhtiorovna*
METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH FAIRY TALES ........ 636-641

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 3 (4) - 2024
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

**Tursunova Shahnoza Bekchanovna**
TATU Urganch filiali “O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti
tursunovashahnoza534@gmail.com

## JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING O'RNATISH

**Annotatsiya.** OAV va mediamarkazlarni harakatlantiruvchi, ular axborotlarini dolzarblashtiruvchi kuch jamoatchilik fikri - pablik rileyshnz (PR)dir. O‘zbekistonda Respublikasi Prezidentining qarorlarida aks etgan Axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgandir. Jamiyatimizning OAV va mediamarkazlarga murojaatlarining yuqori ekanini demokratik talablar tantanasiga bo‘lgan ishonchi sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, milliy matbuotni demokratlashtirish va modernizatsiyalash borasida jiddiy, innovatsion o‘zgarishlar amalga oshirilishi kerakligi va eng avvalo innovatsion tafakkurga, yangicha fikrlash va izlanishlarga moyil matbuot xodimlariga, mutaxassislarga ehtiyoj katta ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Axborot xizmati, jamoatchilik fikri, Public Relations, demokratiya, aniq, haqqoniy axborotlar, gazeta, jurnal, radio, televideniye va internet, tadbirkor va biznesmenlar, innovatsion tafakkur.

---

**Tursunova Shahnoza Bekchanovna**
Associate Professor of the Department of
"Uzbek Language and Social Sciences" of TATU Urganch branch

## ESTABLISHING RELATIONS WITH THE PUBLIC IN THE FORMATION OF PUBLIC OPINION

**Abstract.** The force that encourages the media and media centers to update their information is public opinion (PR). Particular attention is paid to the further improvement of the activities of information services, reflected in the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan. The high attractiveness of our society in the media and media centers can be seen as confidence in the triumph of democratic demands. At the same time, it was noted that serious, innovative changes are needed in the democratization and modernization of the domestic press, and first of all, there is a great need for journalists and professionals inclined towards innovative thinking, innovative thinking and research.

**Keywords:** information service, public opinion, public relations, democracy, accurate, truthful information, newspapers, magazines, radio, television and the Internet, entrepreneurs and businessmen, innovative thinking.

---

**Турсунова Шахноза Бекчановна**
Доцент кафедры «Узбекского языка и социальных наук»
Ургенчского филиала ТАТУ

## УСТАНОВЛЕНИЕ СВЯЗЕЙ С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ

**Аннотация.** Силой, которая побуждает СМИ и медиацентры обновлять свою информацию, является общественное мнение (PR). Особое внимание уделяется дальнейшему совершенствованию деятельности информационных служб, отраженной в указах Президента Республики Узбекистан. Высокая привлекательность нашего общества в средствах массовой информации и медиацентрах может рассматриваться как уверенность в торжестве демократических требований. В то же время было

отмечено, что необходимы серьезные, новаторские изменения в демократизации и модернизации отечественной прессы, и в первую очередь велика потребность в журналистах и профессионалах, склонных к новаторскому мышлению, новаторскому мышлению и исследованиям.

**Ключевые слова:** информационная служба, общественное мнение, связи с общественностью, демократия, точная, правдивая информация, газеты, журналы, радио, телевидение и интернет, предприниматели и бизнесмены, инновационное мышление.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N88

**Kirish.** Ma'lumki, so'z erkinligini ta'minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarning roli ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarishni taqozo etadi. Davlatning siyosiy boshqaruvida avvalambor fuqarolar bilan qayta aloqaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi yuqori samaradorlik garovi hisoblanadi. Buning uchun aholiga amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to'liq axborot yetkazish, davlat organlari shaffofligini ta'minlash taqozo etiladi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 27-iyundagi PQ–4366-son qarori bu o'rinda amalga oshirilayotgan islohotlarning izchilligini ko'rsatadi. Davlat boshqaruvida jamoatchilik bilan aloqalarning o'rni mavzusini tadqiq qilishning dolzarbligi ushbu sohaning nisbatan yangiligi, yo'nalishda uchrab turgan muammolarga yangicha qarash bilan, shu jumladan PR menejmentning yangi texnologiyalarini qo'llash orqali rivojlantirishni talab qilayotganligida ko'rinadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning siyosati, tashabbuslari va amaliy dasturlari negizida ushbu prinsip yotganini sezish qiyin emas. Shuning uchun OAV va mediamarkazlarning xalq bilan muloqotning tarkibiy yo'nalishi bo'lgan jamoatchilik bilan aloqalarini, ijtimoiy fikrning innovatsion xususiyatlari va ularning mediamakondagi o'rni muhim ahamiyatga egadir. Chunki "matbuotning ijtimoiy mohiyati, asosiy funksiyalari nuqtai nazaridan qaraganda uning bosh xususiyati jamoatchilik fikrining ifodachisi ekanligida yaqqol ko'rinadi. Matbuot jamiyatning ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotini aks ettirishi hamda ijtimoiy borliq bilan ijtimoiy ongning bir-biriga ta'sir ko'rsatishida faol harakat etuvchi omil vazifasini bajarar ekan, bu borada jamoatchilik fikriga tayanib ish ko'radi" [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** "Jamoatchilik fikri bilan hisoblashish masalasi uzoq yillar turli bahs-monozalarga sabab tarixiy manbalarda ko'p uchraydi. Bu g'oyani miloddan oldin yashagan Suqrot ilgari surib, o'z shogirdlarini haqiqatni bilishga undagan. U haqiqatni "bahs orqali, suhbat yo'li bilan bilish, anglash mumkin, degan, suhbatda asosiy e'tiborni inson ongi va tafakkurini tahlil qilishga qaratish zarurligini aytgan. O'z davrida bu usul "Suqrot usuli" deb atalgan" [2]. Zamonaviy tilda OAV va mediamarkazlarning jamoatchilik bilan aloqalari "Public Relations", PR, piar deb ataladi.

Mutaxassislar Public Relations rivojidagi bosqichni ikkiga ajratishadi; avvalo siyosiy faoliyat bilan bog'liq dastlabki bosqich davlat hokimiyatidagi siyosat bilan bog'liq bo'lgan. Shuning natijasi o'laroq AQSHdagi katta shaharlar korporatsiya va kompaniyalar xususiy korxonalari tadbirkorlar ishchilar fermerlar ko'payib prezidentlik hokimiyati kuchaya bordi.

Masalan 1830-yilga kelib Amerikada eng koʻp gazeta chop etilardi. Bu esa press – agent matbuot xodimi kabi lavozimlarni paydo boʻlishiga zamin boʻlgan. 1900-yilda Boston shahri markazidagi Pablik Rileyshiz matbuot boʻlimi tashkil etildi. 1910 – 1920-yillarda jamoatchilik bilan ishlashning koʻpirgan vaqti boʻldi. Gorgiy Pochensov fikri bilan aytganda: "Pablik Rileyshiz mutahasislashuvi savdo biznes sohasi bilan uyqash boʻldi."

1903-yilda amerikalik jurnalist jamoatchilik bilan ishlash yoʻnalishining otalaridan biri Ayvi Li "Tamoyillar haqida deklaratsiya" asrini yozib matbuot markazi xodimining faoliyatini jamoatchilikka yaqinlashtirdi. 1914 yilda Jan Rokfeller Ayvi Lining xizmatidan oʻz obroʻsini oshirishda foydalanadi, ya'ni Kolorado shaxtasida bir necha kishilar falokatga uchraydi hamda ishchilar qoʻzgʻolon koʻtarib ish tashlashadi. Rokfeller vaziyatdan foydalangan holda Ayvi Lining tavsiyasiga binoan falokat yuz bergan joyga ya'ni shaxtaga borib ishchilarning shikoyatini tinglaydi, jabrlangan shaxtyorlarning oilasiga har tomonlama yordam beradi. Ayniqsa shaxtyorlarning turli tadbirlarda ular bilan barobar qatnashadi. Xullas shunday qilib Rokfeller jamoat orasida yana oʻz mavqeyini oshirib oladi.

XX asr 20 – 40 yillarida jamoatchilik bilan ishlash yoʻnalishi ilmiy jihatdan oʻz kuchiga ega boʻldi. 1923yilda Edvard Buliyzm "jamoatchilik fikrini tahlili" asari chop etilib , mazkur sohaning ilmiy oʻrganishga asos solindi. Xuddi shu yili Nyu — York universitetining tarkibida "Pablik Rileyshiz" kafedrasi ochildi. Edvard Buliyzm "Gʻoyalar tarjimai holi" kitobida shunday eslaydi: "men 1919 yilda dastlabki ofisimni ochganimda "Pablik axborot"," Pablik Rileyshiz", "Pablik menejer" atamalaridan voz kechib, "Pablik Rileyshiz maslahatchisi"ni tayin etdim. U mijozlarni fikrini tinglab jamoatchilik munosabatlarini tiklashga xizmat qila boshladi".

1930-yilga kelib Amerikadagi yirik kompaniyalar jumladan "General Motors" jamoatchilik bilan ishlashining muayyan lavozimiga ega boʻldi. AQSH da PR bilan 1953-yilda tashkil topgan Amerika axborot xizmati shugʻullandi.

Pablik Rileyshizni muttasil tahlil etgan Smem Blek fikricha PR rivojlanishining ikkinchi bosqichi harbiy va mudofaa sohalari bilan bogʻliqdir. Ayniqsa Buyuk Britaniyada NALCO harbiy xizmatchilar va davlat xodimlarining oʻquv markazi tashkil etilishi Fransiya hukumatida alohida xodimlar hamda harbiy xizmatchilar uchun boʻlim ochilishi fikrimiz dalilidir. Garchand Yevropada mazkur soha amerikaliklar ta'siri ostida rivojlanmagan boʻlsa ham har bir mamlakatning iqtisodiy siyosiy tuzumiga u turlicha ta'sir koʻrsatdi. Masalan 1950-yillardan boshlab Germaniyada tashkil topgan bu soha jamiyatning jipslashuviga bevosita ta'sir qiladi. Zero Albert ta'biri bilan aytganda "Pablik Rileyshiz alohida" subyektlarning jamiyatdagi oʻrnini belgilashi borasida aniq, toʻgʻri ma'lumot olib, oʻz fikrining shakllanishiga ham xizmat qiladi.[1]

1948-yil Angliyada jamoatchilik bilan aloqador faoliyati boʻyicha Britaniya instituti tashkil etilgan. Bu institut axborot xizmati ofitserlarini oʻqitish , xorijdagi Angliya elchixonalarida ishlayotgan diplomatlarning faoliyatini jamoatchilik bilan muvofiqlashtirish bilan shugʻullanadi.

Fransiyada 1955-yil jamoatchilik bilan aloqalar boʻyicha jamiyat tashkil etilgandan soʻng oʻz rivojini boshladi hamda iqtisodiyot, savdo – sotiq, ishlab chiqarish sohalarida keng qoʻllanila boshladi. 1954-yil Rimda jamiyat bilan aloqalarni rivojlantirish markazi ochilgandan soʻng PR ga e'tibor kuchaytirildi.

Belgiyada 1953-yil jamoat bilan aloqalar jamiyati tashkil etildi. Bu omil Belgiyada jamoat bilan aloqalar sohasining rivojlanishiga sabab boʻldi. [2]

Shuningdek, adabiyotlarni va ilmiy izlanishlar natijalarini oʻrganish koʻrsatadiki, matbuot bilan jamoatchilik bilan aloqalarining muhimligi, avvalo demokratiya, xalq hokimiyatchiligi prinsiplariga muvofiq kelgan, shuning uchun ularni pragmatizm tarafdorlari, tadbirkorlar va biznesmenlar qoʻllab-quvvatlagan. Pragmatistlar oʻz faoliyati va tovarlarining keng bozorga olib chiqishdan manfaatdor edilar, matbuotning targʻibot ishlari, kommunikatsion usullari ushbu manfaatga xizmat qilishi mumkin edi. Shu tariqa matbuot faqat gazeta, jurnal sahifalarigina emas, balki ishbilarmonlik va tadbirkorlikning muhim yoʻnalishi sifatida shakllandi. PR matbuotning jamoatchilik fikrini shakllantirish orqali ijtimoiy, siyosiy va maʼnaviy hayotga, keng maʼnoda esa, jamiyat taraqqiyotiga taʼsir etish imkoniyatlariga ega ekanini koʻrsatdi [3].

Mutaxassislarning koʻrsatishicha, PR matbuotni 1) jamoatchilik fikrini oʻrganish va uni kuzatish; 2) jamoatchilik harakatini kuzatish; 3) tashkilot bilan jamoatchilik oʻrtasida ikki tomonlama manfaatni taʼminlashga xizmat qiladi. Shu sababli u "hokimiyat organlari va xalq, aholi va biznes, ishlab chiqaruvchilar va isteʼmolchilar, shaxslar va ijtimoiy guruhlar oʻrtasida aloqalar oʻrnatadi. Amalda PR demokratiya ravnaq topgan mamlakatlardagina rivojlanadi. Ayni vaqtda u demokratiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bugungi kunga kelib esa piar dunyoviy fan sifatida keng quloch yoyayotganining boisi ham shunda. PR davlat tashkilotlari, qonun chiqaruvchi hamda ijro hokimiyatlari va jamoatchilik oʻrtasida aloqa oʻrnatishga yordam beradi. Ingliz olimi Sem Blek taʼbiri bilan aytganda: "Pablik Rileyshnz aniq, haqqoniy axborotlarga asoslangan, oʻzaro bir-birini tushunish toʻgʻrisidagi fan va sanʼatdir[4] .

OAV va mediamarkazlarning jamoatchilik fikrini shakllantirishi, bu ular faoliyatidagi paradoksal hol, jamoatchilik fikriga tayanish, uni oʻz sahifalarida yoritish, dasturlarida namoyon etish, efirda eshittirish orqali roʻy beradi. Jamoatchilik fikri qolgan jamoalar fikrini shakllantiradi. OAV va mediamarkazlar ushbu fikrlarni bir-birlarini eshitishini, tinglashi va tushunishini uyushtiruvchi vositalarga aylanadi.

OAV va keng jamoatchilik, ziyolilar, ayniqsa Axborot xizmatlari agentliklari bilan ijodiy hamkorlik har qanday muammoni operativ, sifatli va professional darajada yoritish imkonini beradi.

Ilgʻor davlatlar tajribalarini oʻrganishdan maʼlumki, OAV oʻzining ilmiy, maʼrifiy funksiyalarini korporatsiyalar, mehnat jamoalari, muassasalar qoshidagi Axborot agentliklari orqali amalga oshiradi. Mazkur institutlarning gazetalar, jurnallar, radio, televideniye va internet bilan ijodiy aloqalarini oʻrnatuvchi maxsus xodimlari boʻladi, goho ular soni hatto 50 nafargacha boradi. Har bir xodimning oʻz vazifasi bor, yaʼni biri gazeta jurnallarni, ikkinchisi radioni, uchinchisi telekoʻrsatuvlarni, toʻrtinchisi internetni kuzatib boradi, institut hayotiga taalluqli yoki u uchun zarur axborotlarni toʻplaydi, oʻrganadi, rahbariyatga yetkazadi. Ayni paytda ular oʻz axborotlarini, reklama yoki faoliyatiga oid yangiliklarni OAV orqali tarqatadi. Bugun respublikamizdagi qator yetakchi tashkilotlarda uchtadan shunday xodim faoliyat yuritmoqda[5]. Ayni paytda davlat organlariga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va OAV bilan davlat idoralari oʻrtasidagi muloqotni uzluksiz jarayonga aylantirishga xizmat qilmoqda. Shu kunga qadar ochiq portalga 149 ta davlat idoralari tomonidan 11 mingdan ortiq maʼlumotlar toʻplami joylashtirilgan boʻlib, ulardan foydalanuvchilar soni 7,5 million kishidan ortiq [6].

**Tahlil va natijalar.** OAV soʻz erkinligining ifodachisi. Barcha mediamarkazlar demokratik tamoyillar nuqtayi nazaridan baholanadi. AQSHdagi Xalqaro kommunikatsiya va

tashqi aloqalar instituti mutaxassisi M.Sallivan fikriga koʻra: "Axborot xizmatiga hukumatning sadaqasi yoki uning taʼsirchanlik koʻrsatkichi sifatida emas, balki erkin jamiyat tabiatidan va davlatning fuqaroga munosabatidan kelib chiqadigan narsa sifatida qarash kerak.

OAV, matbuot va demokratiya masalalari respublikamizda mudom dolzarb boʻlib kelgan. Bu boradagi fikrlar ziddiyatli, goho esa tanqidiy xususiyatiga ega. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktorining birinchi oʻrinbosari D.Saidjonov deydi: "Men bu sohada 2009-yildan beri faoliyat yuritaman va shu bois yuz berayotgan oʻzgarishlarga baho bera olaman. 2016-yilgacha bizda kuchli OAV yoʻq edi. Hamma axborot koʻrardi, davlat asosiy axborot tarqatuvchi edi. Oʻsha paytlarda biz chet el OAV taʼsirida edik. Bugun esa vaziyat boshqacha bugun jurnalistlarimiz va blogerlarimiz faoliyati kuchaydi hamda Gʻarb yoki boshqa chet el ommaviy axborot vositalari bu raqobatda yutqazdi. Agar ushbu ochiqlik va soʻz erkinligi davom etmasa, axborot makonimizni yana boshqalarga berib qoʻyishimiz mumkin. Shu bois 2019-yilda axborot xizmatlari faoliyati tiklandi. Maqsad boʻlayotgan oʻzgarishlar, biror muammo haqida obyektiv munosabatni xalqqa ochiq yetkazish. AOKA vakolatli davlat organi sifatida axborotlar xizmatlari faoliyatiga turlicha baho berish mumkin, lekin ularga eng munosib bahoni jurnalistlar va blogerlar beradi" [7]. Mutaxassis, masʼul xodimning soʻzlariga ishonmaslik mumkin emas.

Oʻtgan oʻn yilliklarda "Sharqona demokratiya" bayrogʻi ostida OAV davlat xizmatchilariga aylantirilgan edi, xalq bilan muloqot davlat idoralari xohish va istaklariga muvofiq uyushtirilgan. Davlat nashrlariga aylantirilgan gazeta, jurnallarga ixtiyoriy majburiy obuna boʻlish tartibi oʻrnatilgan. Rahbariyatga tegib ketadigan maqola chop etilsa masʼul muharrir tergovga chaqirilgan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist, Oliy Majlis deputati Safar Ostonov deydi: "Mustaqillikka erishilgach, senzura yoʻq qilindi. Ammo matbuot, jurnalistika nimaligini umuman tushunmaydigan turli darajadagi rahbarlar uzoq vaqt ommaviy axborot vositalari faoliyatiga asossiz aralashib, yuragimizni qon qilib, asabimizni yemirib kelishdi"[8]. Shunga yaqin fikrlarni biz Respublikamizdagi taniqli jurnalistlar, mutaxassislar va ijodkorlardan I.Gʻafurov, X.Doʻstmuhamedov, E.Aʼzam, A.Meliboyev, M.Umrzoqov, S.Hakim, H.Ermatov, N.Jalil, A.Koʻchimov, K.Bahriyev, U.Hamdam, I.Sulton, M.Toir, S.Saidning "Ishonch", "Milliy tiklanish", "XXI asr", "Hurriyat", "Xalq soʻzi", "Oʻzbekiston ovozi", "Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati", "Oila va jamiyat", "Kitob olami" kabi gazetalardagi maqolalari va asrlarida ham kuzatamiz[9].

Demokratiya sharoitida hukumat uchun, u qanday boshqarayotgani toʻgʻrisidagi axborotni ommaga yetkazishdan ham koʻra nima tabiiyroq boʻlishi mumkin? Demokratik jamiyatda matbuot bilan muloqot, bu burch!"[10].

**Xulosa va takliflar.** Biz jamoatchilik bilan aloqa qilar ekanmiz, shu aloqa samarali boʻlishi uchun jamoatchilikning ijtimoiy fikrini muttasil oʻrganib borishimiz kerak. PR xodimi ijtimoiy fikrning ichiga kirib borishi zarur. Odamlar nima haqida oʻylayapti, ularning faoliyati haqida qanday fikrlarga ega va hokazolar.

Keng auditoriya turli toifa kishilaridan iborat boʻlishi mumkin, yaʼni, maktab oʻquvchilari, talabalar, ziyolilar, ishchilar, dehqonlar va boshqa kasb egalari. Ularning saviyasi, tushunish darajasi har xil. PR xodimi hammaga tushunarli, ommabop soʻzlar, iboralar bilan xalqona tilda gapirishi, axborot tarqatishi zarur. Jamoatchilikka mos ravishda fikr bildirishgina ijobiy samara berishi mumkin. Bu – auditoriyani ilmiy oʻrganish demakdir. Jamoatchilik bilan aloqalar sohasida faoliyat koʻrsatgan kishi katta ishonchga sazovor boʻladi. Bu jamoatchilikning

ijtimoiy vaziyati ilmiy tadqiq etilgan, sinalgan usullar bilan oʻrganish hosilasidir. Sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya usullari hamda boshqa fanlar bilan jamoatchilikni va ijtimoiy vaziyatni oʻrganib, oʻsha toʻplagan bilim va tajribalari asosida harakatlar dasturini yaratishi mumkin. Bu borada xayolparastlik, parishonxotirlik qilish, har xil his-hayajon va boshqa havoyi gaplar ketmaydi. Aniq ilmiy yondashuv kerak. Buning uchun eng avvalo jamiyatni, jamoatchilik fikrini oʻrganish shart.

Jamoatchilik bilan aloqalar shunday murakkab fanki, unda tarix, falsafa, sotsiologiya, pedagogika, siyosatshunoslik, etika, estetika va hokazo fanlar mujassamdir. Mazkur fanlar mudom bir-biri bilan juda chambarchas. Demak, AX xodimlari birinchi galda tegishli sohaga oid fanlarni va jurnalistika bilan bir qatorda falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik fanlarini ham puxta bilishi joiz. Kamida toʻrt-besh sohani bilmagan odam AX xodimi, shu sohaning mutaxassisi boʻlishi juda qiyin. Jamoatchilik fikrini oʻrganish uchun avvalo uni kuzatish zarur. Xoʻsh, piarga qanday informatsiyalar zarur? Bu masalada, kerak boʻlsa, PR xodimining oʻzi jamoatchilikda biror fikr uygʻotishi mumkin. Fikr uygʻondimi, endi u odamlarning fikrlari bilan yanada boyiydi.

Shunday ekan, OAV va mediamarkazlarni harakatlantiruvchi, ular axborotlarini dolzarblashtiruvchi kuch jamoatchilik fikri, pablik rileyshnz (PR)dir. Oʻzbekistonda matbuot soʻziga ishonish kuchli, kishilarimiz OAV va mediamarkazlarga murojaatlarining yuqori ekanini demokratik talablar tantanasiga boʻlgan ishonchi sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, milliy matbuotni demokratlashtirish va modernizatsiyalash borasida jiddiy, innovatsion oʻzgarishlar amalga oshirilishi kerak. Eng avvalo innovatsion tafakkurga, yangicha fikrlash va izlanishlarga moyil matbuot xodimlariga, mutaxassislarga ehtiyoj katta.

**Адабиётлар/Литература/References:**


1. Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4366-son 2019 yil 27 iyun qarori. https://lex.uz/docs/4390513
2. Xudoyqulov M. Ommaviy axborot vositalari nazariyasi. - Toshkent: Universitet, 1999. 37 b.
3. Zunnunov. A, .Xayrullayev.M va boshqalar. Pedagogika tarixi. - Toshkent: Sharq, 175 b.
4. Eshbekov T. Jamoatchilik bilan aloqalar va axborot xizmatlari. Oʻquv qoʻllanma. -Toshkent: OʻzMU, 2012. 4 b.
5. Bernays E. Grystalizing Publik Opinion. N.Y., 1961; Blek S. Vvedeniye v pablik rileyshnz. - Kiyev, Vakler, 2000; Katlip S.M., Senter A.X., Brum G.M. Pablik rileyshnz. Teoriya i praktika. - Moskva: Vilyams, 2003; Muminov F. Pablik rileyshnz: istoriya i teoriya. Toshkent: Ijod dunyosi, 2004
6. Eshbekov T. Jamoatchilik bilan aloqalar va axborot xizmatlari. Oʻquv qoʻllanma - Toshkent: OʻzMU, 2012. 12 b.
7. Eshbekov T. Jamoatchilik bilan aloqalar va axborot xizmatlari. Oʻquv qoʻllanma. - Toshkent: OʻzMU, 2012. 37 b.
8. kun.uz., 2021, 16 mart
9. https. // www.Facebook,com/aoka. Uz.
10. Ostonov S. Soʻz erkinligi sharafi va mas’uliyati // Ozbekiston ovozi, 2021, 7 aprel
11. Toshpoʻlatova N. Publitsistika - fikr tarozisi // Ozbekiston adabiyoti va sanaty, 2021, 12 mart
12. Oʻsha asar. 39 b. https // t. me/ eoavuz / 47

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I3Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 3 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).